

Xalq ta'limi muassasalarida xarajatlarni rejalashtirish mexanizmi

Shahobiddin Rustamov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maqolada O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi muassasalarida xarajatlarni davlat byudjetidan moliyalashtirish amaliyoti yoritilgan. Shuningdek, ta'lim xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tendentsiyalari va muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim xarajatlari, byudjet xarajatlari, ijtimoiy soha xarajatlari, moliyalashtirish

Mechanism of cost planning in public educational institutions

Shahobiddin Rustamov

Banking and Finance Academy of Uzbekistan

Abstract: This article describes the practice of financing expenses from the state budget in public educational institutions in the Republic of Uzbekistan. Also, the trends and problems of planning and financing of education expenses are considered.

Keywords: education system, education spending, budget spending, social spending, financing.

Xalq ta'limi muassasalari o'quvchilarni bazaviy bilim olishlarini ta'minlash jarayonida o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish, ko'nikmalar hosil qilish, keljakda munosib kasb tanlash kabi masalalar hal qilinadi. Shunday ekan, xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1245-sonli Qarorining 19-bandiga asosan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birlgilikda 2010 yildan boshlab bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibini respublikaning barcha hududlaridagi mazkur muassasalarga tatbiq etilishi hamda byudjetni rejalashtirish va moliyalashtirishning

yangi tartibiga o‘tkaziladigan har bir byudjet tashkilotiga moliyalashtirish me’yorlari etkazilishini ta’minlanishi” qayd etilgan.

O’zbekiston Respublikasining qonun hujjalariга muvofiq pedagog, rahbar va yordamchi xodimlar mehnatiga haq to’lash, xodimlarni moddiy rag’batlantirishning direktor jamg’armasi, yagona ijtimoiy to’lov xarajatlari

asosiy ishdan ajralgan holda malaka oshirish kurslariga yuborilgan pedagog kadrlarning o’rnini bosish tartibida ishlagan pedagog xodimlar mehnatiga haq to’lash xarajatlari

umumta’lim maktablarini saqlash bilan bog’liq boshqa xarajatlari (komunal xizmatlar, joriy ta’mirlash, tovar, xom-ashyolar xarid qilish va boshqalar)

1-rasm. Umumta’lim maktablarining bir nafar o‘quvchisi uchun ajratiladigan xarajatlarning bazaviy normativlariga kiritiladigan ko‘rsatkichlar¹

Umumta’lim maktablari byudjetini aniqlash bir nafar o‘quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlari va tuzatish koeffitsientlari qo’llash orqali amalga oshiriladi. Umumta’lim maktablarining bir nafar o‘quvchisi uchun xarajatlarning bazaviy normativlariga bir qator ko‘rsatkichlar kiritiladi (1-rasm).

Maktablardagi sinflar va o‘quvchilar soni 1 yanvar va 1 sentyabr holati bo‘yicha aniqlanadi. 1 yanvarga o‘quvchilar va sinflar soni oxirgi hisobot sanasidagi amaldagi holat bo‘yicha ularning joriy yilning oxiriga qadar bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan o‘zgarishlarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Rejallashtiriladigan yilning 1 sentyabriga o‘quvchilar soni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejasida o‘quvchilarni qabul qilish, o‘tkazish va ularning bitirib chiqishini hisobga olgan holda belgilanadi. Birinchi sinflarga qabul 1 sentyabrga qadar yoki sentyabr oyida 7 yoshga to’ladigan bolalar soniga qarab rejallashtiriladi. Keyingi sinflarda qabul oldingi sinflardagi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Xarajatlar hisob-kitoblarini amalga oshirish o‘rtacha yillik o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi. Asosiy tarkib 8 oy mobaynida (1 yanvardan 1 sentyabrgacha), yangi tarkib esa 4 oy davomida (1 sentyabrdan yil oxiriga qadar) moliyalashtiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2010 yildagi qo’shma qaroriga muvofiq umumta’lim maktablari uchun bir nafar o‘quvchiga to‘g’ri keladigan bazaviy me’yorlar va umumta’lim maktablari uchun qo’llaniladigan qo’shimcha koeffitsientlar tartibi ishlab chiqilgan. Ushbu qo’shma qaror 2010 yildan boshlab butun Respublika bo‘yicha umumta’lim

¹ O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2010 yil 28 apreldagi “Bir nafar o‘quvchiga to‘g’ri keladigan bazaviy me’yorlar va umumta’lim maktablari uchun qo’llaniladigan qo’shimcha koeffitsientlar tartibi to‘g’risida”gi №35; va №1-sonli qo’shma qarori asosida magistrant ishlanmasi

maktablarining byudjetlarini tuzish uchun qo'llanila boshlandi va har yili Moliya va Xalq ta'limi vazirliklari tomonidan tegishli tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirilib borilmoqda.

Bazaviy xarajatlarning me'yorlari va belgilangan koeffitsientlar mahalliy byudjetlar tomonidan umumta'lim maktablari uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni hisoblashda qo'llaniladi va umumta'lim maktablari bir nafar o'quvchisiga to'g'ri keladigan xarajatlarning bazaviy me'yorlariga quyidagilar kiradi:

- pedagogik, ma'muriy-boshqaruv, o'quv-yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ish haqi xarajatlari, direktor jamg'armasi mablag'lari, ish haqidan ajratmalar;
- asosiy ishdan ajralmagan holda malaka oshirishga yuborilgan pedagog xodimlar, ularning o'rnini egallovchi pedagoglar ish haqi xarajatlari;
- umumta'lim maktablarini saqlash bo'yicha boshqa xarajatlar (kommunal to'ovlar, joriy ta'mirlash ishlari, sarflanadigan materiallar sotib olish va boshqalar).

E'tibor qaratadigan bo'lsak, ish haqi, pedagogik xodimlarni rag'batlantirish jamg'armasi va o'zgaruvchar xarajatlar, ya'ni o'quv xarajatlari, joriy ta'mirlash, binoni funksional holatiga ketadigan xarajatlar, kommunal xizmatlar, internet xizmatlari xarajatlari umumta'lim maktablarining bir nafar o'quvchisi uchun xarajatlarning bazaviy normativlariga kiritilgan, ammo muassasalarini kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish xarajatlari ko'rsatkichlar tarkibiga kiritilmagan.

Normativlarga kiritiladigan ko'rsatkichlar bilan bir qatorda yuqorida me'yoriy-hujjatga asosan umumta'lim maktablarining ehtiyojlaridan kelib chiqib ajratiladigan bir qator xarajatlar bazaviy normativlarga kiritilmagan (2-rasm).

ko'mir va suyuq yoqilg'i
(mazut) xarid qilish va uni
joylarga yetkazish

o'quv-laboratoriya sinflari
uchun xom-ashyo
materiallar xarid qilish

gazeta va jurnallariga obuna
to'ovlari

"ZiyoNET" ta'lim
tarmog'iga ularish va undan
foydalanganlik uchun har
oylik abonent to'ovi

barcha turdag'i kommunal
xizmatlarning
hisoblagichlarini xarid qilish
va o'rnatish

kuz-qish mavsumida
uzluksiz faoliyatini
ta'minlashga bog'liq
ta'mirlash ishlari, shu
jumladan isitish qozonlarini
o'rnatish va almashtirish

**2-rasm. Umumta'lim maktablarining bir nafar o'quvchisi uchun xarajatlarning
bazaviy normativlariga kiritilmaydigan xarajatlar²**

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2010 yil 28 apreldagi "Bir nafar o'quvchiga to'g'ri keladigan bazaviy me'yorlar va umumta'lim maktablari uchun qo'llaniladigan qo'shimcha koeffitsientlar tartibi to'g'risida"gi № 35 va №1-sonli qo'shma qarori asosida magistrant ishlansmasi

Bir nafar o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan bazaviy me’yorlarga har bir umumta’lim maktabi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning murojaatiga hamda xalq ta’limi va moliya boshqarmalari mahalliy organlari tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatlarga muvofiq ajratiladigan quyidagi xarajatlar kiritilmaydi:

- ko‘mir sotib olish va etkazish;
- «Ziyo-net» ta’lim tarmog‘iga ulanish va undan foydalanish uchun oylik abonent to‘lovi;
- umumta’lim maktablarini telefon tarmog‘i bilan ta’minalash;
- o‘quv-laboratoriya sinflari uchun sarflanadigan materiallar sotib olish;
- barcha turdagи communal xizmatlari bo‘yicha schetchik asboblarini sotib olish va ularni o‘rnatish;
- asosiy vositalarni sotib olish;
- kapital ta’mirlash xarajatlari.

Bundan tashqari, umumta’lim maktablari smetalarining bazaviy me’yorlaridan ortiqcha bo‘lgan xarajatlar mahalliy (shahar, viloyat) byudjetlarning alohida 42200 “Umumiyl o‘rta ta’lim” parametrlariga olib boriladi va quyidagi xarajatlarga yo‘naltiriladi:

- ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalariga qonunda belgilangan tartibda ish haqiga qo‘sishchalar to‘lash;
- maxsus iqlim sharoitlarida joylashgan umumta’lim maktablari koeffitsientlari bo‘yicha xarajatlar;
- umumta’lim maktablari qoshidagi axborot resurs markazlari;
- umumta’lim maktablari ichida joylashgan “Barkamol avlod” yoshlar markazining elektr-energiyadan tashqari communal to‘lov xarajatlari.

Umumta’lim maktablari uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning umumiyl hajmi, ya’ni maktab byudjeti quyidagi formula assosida hisoblanadi³:

$$\text{BM} = (\text{XBN1} * \text{N1} * \text{K1} + \text{XBN2} * \text{N2} * \text{K2}) * \text{Kmm} + \text{XBN3} + \text{XBN4} * \text{N} * \text{Kis} + \text{XBN5} * \text{N3} + \text{XBN6} * \text{N4} + \text{XBN7} * \text{N5}$$

Bu yerda:

XBN1 va XBN2 - ta’lim bosqichlari bo‘yicha har bir nafar o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarning bazaviy normativlari;

N1 va N2 - ta’lim bosqichlari bo‘yicha umumta’lim maktabi o‘quvchilarining yillik o‘rtacha soni;

K1 va K2 - ta’lim bosqichlari bo‘yicha tuzatish koeffitsientlari bo‘lib, qishloq joylarda joylashgan umumta’lim maktablarida chet tili o‘qituvchilarining tarif stavkalariga har oylik ustamalar tayinlash bilan bog‘liq;

³O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining “Bir nafar o‘quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablarining 2017 yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida nizom”. 2017 yil 6 martdagи 23 va 8 -son qarori bilan tasdiqlangan.

N - umumta'lim maktablaridagi jami o'quvchilarning yillik o'rtacha soni;

Kmm - umumta'lim maktablarining masshtab koeffitsienti;

Kis - markazlashgan holda yoki gaz bilan isitiladigan umumta'lim maktablari uchun koeffitsient;

XBN3 - yordamchi va boshqaruv xodimlarini saqlash bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;

XBN4 - boshqa (IV)guruh xarajatlarining bazaviy normativi;

XBN5 - uzaytirilgan kun guruhlaridagi kam ta'minlangan oilalarning farzandlari bo'lganbir nafar o'quvchi xarajatlarining bazaviy normativi;

N3 - uzaytirilgan kun guruhlariga qatnaydigan kam ta'minlangan oilalarning farzadlari (o'quvchilar)ning yillik o'rtacha soni;

XBN6 -yakka tartibda (uyida)o'qitiladigan bir nafar o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlarning bazaviy normativlari;

N4 -yakka tartibda (uyida)o'qitiladigan o'quvchilarning yillik o'rtacha soni;

XBN7 - maktab huzuridagi internatda yashaydigan bir nafar o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlarning bazaviy normativi;

N5 - maktab huzuridagi internatda yashaydigan o'quvchilarning o'rtacha yillik soni.

Umumta'lim maktab masshtabi koeffitsienti sinflarning o'rtacha to'ldirilishi 25 nafardan kam bo'lgan umumta'lim maktablari uchun qo'llaniladigan hisoblash koeffitsienti (0,90)ni sinflarning me'yor bo'yicha (35 nafar o'quvchi) to'ldirilishi ko'rsatkichi, ya'ni 35 ga ko'paytmasini haqiqatda maktabdag'i sinflarning o'rtacha to'ldirilishi ko'rsatkichiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$Kmm = K * Sm / Sx^4.$$

Agarda umumta'lim maktablarining ayrim xarajatlari bo'yicha yil boshiga debtorlik qarzdorligi mavjud bo'lsa, ushbu muassasaning bazaviy normativlar asosida hisoblangan xarajatlari hajmi ushbu qarzdorlik summasiga kamaytirilishi lozim. Umumta'lim maktablarining kreditorlik qazrdorligi mavjud bo'lsa, u holda ushbu qarzdorlik muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, mablag'lar etarli bo'lmanan hollarda esa xarajatlarning bazaviy normativlari asosida aniqlangan byudjeti doirasida qoplanadi.

Maktab qoshidagi internatlarda uzoq masofalardan kelib yashaydigan bir nafar o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlarning bazaviy me'yorlari ushbu o'quvchilarni maktab internatda saqlash xarajatlarini tegishli normativ hujjatlarda belgilangan miqdorlari hamda kam ta'minlangan oila farzandlarining internat to'lovidan ozod qilishni inobatga olingan holda, hisoblab chiqilgan. Bunda kam ta'minlangan oila


⁴O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda umumta'lim maktablarining 2017 yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida nizomi". 2017 yil 6 martdag'i 23 va 8 -son qaroribilan tasdiqlangan.

farzandlarining umumiy soni internatda yashovchi o‘quvchilarning 15 foizidan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Umumta’lim maktabalarining alohida turdag'i xarajatlari bo‘yicha tasdiqlangan debitorlik qarzlari mavjud bo‘lsa, xarajatlarning bazaviy me’yorlari bo‘yicha hisoblangan miqdoridan shu summaga kamaytiriladi. Kreditorlik karzlari mavjud bo‘lsa, muassasaning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanadi, kreditorlik qarzlarini qoplashga byudjetdan tashqari mablag‘lar etarli bo‘lmasa, xarajatlarning bazaviy me’yorlari bo‘yicha shakllangan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda qoplanadi. Agar muassasa yuqorida ko‘rilgan tartibga kiritilmagan boshqa yoqilg‘i turlari bilan isitilsa (o‘tin, mazut, isitish yonilg‘ilar) ushbu xarajatlar byudjetlarning alohida 42200 “Umumiy o‘rta ta’lim” parametrlari doirasida qoplanadi.

Umumta’lim o‘tin, mazut, pech yoqilg‘isi bilan isitilgan holatlarda byudjetlarning tasdiqlangan parametrlari doirasida maktabning xarajatlar smetasida qo‘sishma ravishda boshqa yoqilg‘i xarid qilish uchun mablag‘ rejalashtirishga ruhsat etiladi. Bunday holatlarda yoki umumiy qilib aytganimizda umumta’lim maktablari uchun bazaviy normativlar va tuzatish koeffitsientlarini qo’llash orqali hisob-kitob qilingan maktab byudjeti bilan haqiqiy ehtiyojlari o‘rtasida farq yuzaga kelishi mumkin. Bunday farqni bartaraf etish uchun maktab byudjeti hajmini 8 % gacha tuzatishga yo‘l qo‘yish mumkin. Bunda, ushbu umumta’lim maktabining xarajatlar smetasiga uning byudjetiga tuzatish kiritish zaruratini asoslovchi tegishli hisob-kitoblar ilova qilinishi lozim.

Yangi o‘quv yilidagi o‘quvchilarning haqiqiy soni bilan rejalashtirilgan o‘quvchilar soni o‘rtasida 5% dan ortiq farq yuzaga kelgan holatlarda umumta’lim maktabalarining byudjeti o‘quvchilarning haqiqiy sonini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.




3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni⁵

⁵O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb sayti (<https://www.uzedu.uz>) ma’lumotlari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqorida umumta'lim maktablari byudjetlarini rejalashtirish jarayonida qanday ko'rsatkichlar inobatga olinishini ko'rib chiqdik. Quyida esa Xalq ta'limi vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan umumiyligini o'rta ta'lim maktablari xarajatlari rejalashtirishda hisobga olinadigan ko'rsatkichlarga to'htalib o'tamiz. Bunday ko'rsatkichlarning asosiyalaridan biri umumta'lim muassasalarini va unda tahsil olayotgan o'quvchilar, unda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar sonidir (3-rasm).

Bugungi kunda mamlakatimizda 10130 ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularning 26,8 foizi shahar joylarida, 73,2 foizi esa qishloq joylarida joylashgan. 2018-2021 yillarda maktablar soni keskin oshmagan bo'lsa-da, o'quvchilarning soni sezilarli oshgan. Masalan, 2018 yilda 5821861 o'quvchi bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 624491 tani tashkil etib, keskin oshgan (4-rasm).




4-rasm. O'zbekiston Respublikasida umumiyligini o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilari soni⁶

Bir maktabga to'g'ri keluvchi o'quvchilar soni beqarorligi sinf xonalarida «stullar etishmasligi»ga olib kelmoqda. Bu esa, ta'lim sifati pasayishiga xizmat qilishi mumkin. Mazkur muammoning mavjud ekanligi ba'zi umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni sinfda ta'lim sifatining keskin pasayishiga shart-sharoit yaratish darajasida ko'payib ketganligini anglatadi. Maktab ta'limini moliyalashtirishda tijoratlashuv xususiyatini joriy etishning maqsadga muvofiq emasligi uning muhim elementi hisoblanadi. Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, maktab xizmatlarining pulli asosda aholiga etkazib berilishini joriy etish tayanch ta'lim bilan qamrab olish va ijtimoiyadolat qoidalari buzilishiga ta'sir etishi mumkin. Shu boisdan, byudjet mablag'larining natijadorligini ta'minlashga qaratilgan metodlarni hayotga tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Xalq ta'limi xarajatlarining asosiy qismi ish haqi xarajatlariga sarflanishini hisobga oladigan bo'lsak, bunda maktablarda faoliyat yuritayotgan umumiyligini o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari soni ham muhim ko'rsatkichdir (5-rasm).

⁶ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti (<https://www.uzedu.uz>) ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'limgaktab o'qituvchilari soni⁷

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limgaktablarda yarim milliondan ortiq maktab o'qituvchilari faoliyat yuritmoqda. Ta'limgaktab sifatini oshirishda o'qituvchilarning roli kattaligi e'tiborga olgan holda, o'qituvchining ish haqi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Ta'limgaktab musassalari xarajatlarini ichida ish haqi xarajatlari salmoqli o'rinni egallaydi. Ta'limgaktab muassasalari xodimlarining ish haqi qonunchilikda belgilangan (bazaviy) tarif stavkalari, shuningdek, ustama va qo'shimchalardan tashkil topadi.

Mamlakatimizda ta'limgaktab tizimini takomillashtirish, takomillashtirilgan davlat ta'limgaktab standarti va o'quv dasturlari asosida umumiy o'rta ta'limgaktab muassasalari bitiruvchilariga munosib bilim berish ushbu tizimni moliyaviy mablag' bilan ta'minlashni samarali tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Ta'limgaktab muassasasining moliyaviy mablag'lari uning tasarrufida bo'ladi va ulardan qonunchilik va ta'limgaktab muassasasining ustavdagagi vazifalariga muvofiq foydalaniлади. Davlat ta'limgaktab muassasasining moddiy vositalari, binolari, inshootlari va asbob-uskunalarini uning xo'jalik tasarrufida bo'ladi hamda ulardan ustavdagagi vazifalarni hal qilish uchun foydalaniлади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2010 yil 28 apreldagi "Bir nafar o'quvchiga to'g'ri keladigan bazaviy me'yorlar va umumta'limgaktablari uchun o'llaniladigan qo'shimcha koeffitsientlar tartibi to'g'risida"gi №35; va №1-sonli qo'shma Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "Bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda

⁷ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti (<https://www.uzedu.uz>) ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan

umumta'lim makteblarining 2017 yilgi byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom

3. Ҳайдаров Н.Ҳ. Молия: умумдавлат молияси-Т. Ўқув қўлланма. 2009. Б, 2018

4. N Xaydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Akademiya, 2007

5. Т.С. Маликов, Н.Ҳ. Ҳайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA, 2009

6. A.V. Vaxabov, Sh. A. Tashmatov, N.X. Xaydarov, A.V.Vaxabov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma/-Toshkent- 2013

7. Ҳайдаров Н., Т. Маликов - Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма, 2007

8. Т.С. Маликов, Н.Ҳайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009

9. Н. Ҳайдаров. Давлат молиясини бошкариш. Т.:«Академия, 2005

10. Н.Ҳайдаров. Сравнительный анализ основных макроэкономических показателей Республики Узбекистан. Международная научно - практическая конференция «Процессы цифровой трансформации в экономике, финансах и управлении в условиях пандемии». Казань – Ташкент, 4 мая 2022 г.

11. N. Xaydarov. Issues of enhancing the quality of doctoral education at higher education institutions: European Experience and practices of joint project in higher education reform process in Uzbekistan. Vita Color T.: 2014

12. U.Y.O'rroqov, M.B.Moyliyev. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari. Science and Education, 2022

13. Uchqun Yunusovich Urokov, Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. Actual issues in the management of external debt. Science and Education, 2022. № 12

14. Uchqun O'rroqov, Javohir Yomg'Irov. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari: afzalliklari va kamchiliklari. Science and Education, 2022. № 12

15. У.Ю.Уроков. Узбекистонда давлат харидларининг такомиллашувиининг хукукий асослари.«Халкаро молия ва хисоб» журнали. 2017

16. У.Уроков. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йуллари.2017

17. У.Ю. Уроков. К, ишлок хужалиги субъектларини солик имтиёzlари оркали рағбатлантириш. Иктисадиёт ва таълим, 2015

18. У.Уроков. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Узбекистоннинг халкаро молия тизимига интеграциялашувни кучайтириш йуллари" мавзуусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020

19. У.Уроков. Махаллий бюджетлар молиявий баркарорлигини белгиловчи курсаткичлар. 2020.
20. У.Ю Уроков, К.Р. Чинқулов. Узбекистонда давлат харидларининг таомиллашувининг хукукий асослари. «Халкаро молия ва хисоб» журнали, 2017
21. У.Уроков. Max, аллий бюджетлар мустакиллигини оширишнинг устувор йуналишлари. Science and Education, 2022. № 6
22. У.Ўроқов. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. 2017
23. ОҒайбуллаев, У.Ўроқов. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Тошкент: Baktria press. 2016
24. И.Мамаджанов, Қ.Топаров, У.Ўроқов, О.Ғайбуллаев. Ўрта муддатли бюджет. Наманган шаҳар бюджети мисолида. Услубий қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2017
25. U.Yu. O'roqov, S.h B. Abdulazizov. Ta'lim tizimini moliyalashtirish amaliyoti. Science and Education, 2022. № 7